O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
SURXONDARYO VILOYATI QUMQO‘RG‘ON TUMANI HOKIMINING
Q A R O R I

Qumqo‘rg‘on tumani, O‘zbekiston shoh ko‘chasi 1-uy. 190900, tel.: (+99876) 46-52-511, qumhok@exat.uz

2022 - yil 25 - iyun 348-8-114-Q/22 Qumqo‘rg‘on tuman hokimligi

Qumqo‘rg‘on tuman hokimining eskirgan va o‘z ahamiyatini yo‘qotgan normativ tusdagi qarorlarini bekor qilish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘z ahamiyatini yo‘qotgan qonunchilik hujjatlarini qayta ko‘rib chiqish tizimini joriy etish orqali mamlakatda ishbilarmonlik muhitini yaxshilash chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2020-yil 27-sentabrdagi PF–6075-son Farmoni ijrosini ta’minlash maqsadida “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6, 25-moddalariga asosan

Q A R O R Q I L A D I:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 27-sentabrdagi PF–6075-son Farmonida 2021-yil 1-iyunga qadar mahalliy davlat hokimiyati organlarining eskirgan va o‘z ahamiyatini yo‘qotgan normativ-huquqiy hujjatlarini bekor qilish choralarini ko‘rish belgilanganligi inobatga olinsin.

2. Qumqo‘rg‘on tuman hokimi tomonidan qabul qilingan eskirgan va o‘z ahamiyatini yo‘qotgan normativ tusdagi qarorlar ilovaga muvofiq o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

3. “Qumqo‘rg‘on sadosi” gazetasida rasman e’lon qilinsin va hokimlikning rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

4. Mazkur qaror rasman e’lon qilingandan keyin kuchga kirishi belgilansin.

5. Ushbu qarorning bajarilishini nazorat qilish tuman hokimining birinchi o‘rinbosari M.Qultayev zimmasiga yuklansin.

Tuman hokimi **A.M.Normamatov**

Qumqo‘rg‘on tuman hokimining
2022 yil 25 iyundagi
348-8-114-Q/22-son qaroriga
1-ilova

Qumqo‘rg‘on tuman hokimining o‘z kuchini yo‘qotgan deb e’tirof etilayotgan ayrim qarorlari

RO‘YXATI

1. Qumqo‘rg‘on tuman hokimining “2019-yilda Qumqo‘rg‘on tumanida ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash to‘g‘risida”gi 2018-yil 27-sentabrdagi Q-2781-son qarori.

2. Qumqo‘rg‘on tuman hokimining “Viloyat hokimining 2018-yil 29-dekabrdagi “Surxondaryo viloyat 2019-yildagi mahalliy byudjeti parametrlari to'g'risida”gi Q-96-sonli qarori” haqidagi 2019-yil 15-yanvardagi Q-73-son qarori.

3. Qumqo‘rg‘on tuman hokimining “2020-yilda Qumqo‘rg‘on tumanida ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash to‘g‘risida”gi 2019-yil 10-sentabrdagi Q-4683-son qarori.

4. Qumqo‘rg‘on tuman hokimining “2021-yilda Qumqo‘rg‘on tumanida ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash to‘g‘risida”gi 2020-yil 17-sentabrdagi Q-1331-son qarori.

5. Qumqo‘rg‘on tuman hokimining “Tuman hududidagi barcha yuridik va jismoniy shaxslarga tegishli bo‘lgan avtomototransport vositalari va ularning tirkamalarini majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazish to‘g‘risida”gi 2021-yil 12-fevraldagi Q-195-son qarori.

6. Qumqo‘rg‘on tuman hokimining “2022-yilda Qumqo‘rg‘on tumanida ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash to‘g‘risida”gi 2021-yil 28-sentabrdagi 185-8-114-Q/21-son qarori.